

O`ZBeKISTON ReSPUBLIKASI XALQ TA`LIMI VAZIRLIGI
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PeDAGOGIKA INSTITUTI

PeDAGOGIKA FAKUL`TeTI

PeDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYa KAFedRASI

Pedagogika va psixologiya ta`lim yo`nalishi 3-i guruh talabasi

Qo`ziboeva Sevaraning

«Psixologik xizmat» fanidan

K U R S I Sh I

MAVZU: KICHIK MAKTAB YOSHIDA PSIXOLOGIK XIZMAT: ASOSIY
FAOLIYAT VAZIFALARI.

Ilmiy rahbar:

R. Ibragimova

NUKUS-2015

MUNDARIJA

KIRISH

1. KICHIK MAKTAB YOSHIDA PSIXOLOGIK XIZMAT FAOLIYATI

1.1 Болаларнинг мактабга мослашишини o`rganish ishlari

1.2 Kichik maktab yoshining psixologik muammolari va ular bilan olib boriladigan korrektsion ishlar

2.MAKTABGA QABUL QILINGAN BOLALAR UCHUN KORREKTSION RIVOJLANTIRUVCHI MASHG`ULOTLAR

2.1 Maktabga qabul qilingan olti yoshli bolalar uchun korreksion rivojlantiruvchi mashg`ulotlarni o`tkazish bo'yicha tavsiyalar

XULOSA

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

KIRISH

Birinchi marta maktabga qadam qo'yadigan birinchi sinf o'quvchilarining maktabga borganda maktab talablariga sharoitlariga moslashish uchun ma'lum vaqt kerak bo'ladi. Aynan bu ishlar maktab psixologining boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan olib boradigan psixologik xizmat faoliyatining muhim jihati hisoblanadi. Amalda moslashish vaqti hamma bolalarda ham bir xilda samarali o'tmasligi mumkin. Bolaning maktabda moslashishdagi qiyinchiliklar faqat ota-onalar arzlaridagina emas, balki o'qituvchilarning o'quvchilarga berayotgan xarakteristikalarida ham qayd etilmokda. Masalan, ota-onalar bolaning maktabga borishi, uy vazifasini bajarishni xohlamayotganini, uning tutqich bermasligi, juda asabiy bo'lib qolganini aytishsa, o'qituvchilar bu bolalarning darsda diqqatsizligida tartibsizligida, tingdoshlari bilan tez-tez aytishib qolishlariga e'tibor berishmokda. Bunday bolalarda asabiy ruhiy buzilish, psixik rivojlanishda orqada qolish vujudga keladi.

Bolalar maktabda o'qishga qanchalik tayyor bo'lmasalar, maktabda moslashish davri shunchalik qiyin va uzoq o'tadi. Psixologlar bolani maktabda o'qishga tayyor, deganlarida uning jismoniy, psixologik va shaxsiy tayyorgarligini nazarda tutadilar.

Mavzuning dolzarbligi – hozirgi vaqtda bog'cha maktab va boshqa ta'lim muassasalarida rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalar aniqlanadi. Maktabgacha va boshlang'ich maktab tizimi shu muammolarni bartaraf qilishga ham mas'ul bo'lib hisoblanadi. Rivojlanishida ba'zi engil (nutqiy, eshituv va boshqa) nuqsoni bo'lgan bolalar bog'cha va umumta'lim maktab muassasalarida tarbiyalanadilar. Og'ir nuqsonlari bo'lgan bolalar esa maxsus turdagi bolalar bog'chasi yoki maktabga qabul qilinadi, bu muassasalar zarur davolash-sog'lomlashtirish va korreksion, psixologik-pedagogik yordamni bera olish imkoniyatiga ega.

Albatta, ta'lim jarayonida har bir holatga alohida yondoshuv zarur. Chunonchi, og'ir nutqiy nuqsonli bolalar alohida xususiyatlarga ega bo'ladilar. Shu sababli ularda, umumta'limiy tayyorgarlikdan tashqari, korreksion (tuzatish) yo'nalishdagi ta'limga ehtiyoj bor.

Bizda mavjud maxsus bolalar bog`cha-maktablari oldida turgan muammolardan biri maktab, oila, jamoat tashkilotlari, mahallada shaxsni tarbiyalash va shakllantirishning korreksion-pedagogik-psixologik reabilitatsiya tizimi etarli darajada ishlab chiqilmagan. Ma`naviy-axloqiy, intellektual va jismoniy tarbiya masalalarining talab darajasiga ko`tarilmaganligi, ota-onalar, o`qituvchilarning zarur malakaga ega emasligi, shuningdek, xalq pedagogikasi boy merosidagi bilimlardan to`la xabardor bo`lmaganligidadir.

Tadqiqot maqsadi – Boshlang`ich sinfda psixologik xizmat faoliyati bilan tanishish

Tadqiqot predmeti – Kichik maktab yoshidagi psixologik muammolar va ular bilan olib boriladigan korreksion ishlar

Tadqiqot vazifalari – boshlang`ich sinfda psixologik xizmatni tashkil qilish borasidagi ilmiy –uslubiy adabiyotlar, yo`riqnomalar bilan tanishish, bu yo`nalishlar faoliyatini, xujjatlarini, strukturasini tadqiq qilish.

Tadqiqot metodlari – tadqiqot mavzusi yuzasidan psixologik-pedagogik ilmiy ishlarni tahlil qilish, kuzatish, ilmiy manbalar bilan ishlash.

Tadqiqotning metodologik asoslari – **Boshlang`ich sinf** psixologik xizmatni tashkil qilish bo`yicha olimlarning mehnatlari, psixologik xizmatni tashkil qilish haqida Qonun va shu bilan bir qatorda Prezidentimiz I.A.Karimovning mehnatlari asos qilib olindi.

Tadqiqot ishining tuzilishi: Bu ish kirish, ikkita bob, uchta paragraf, xulosa bo`limlari va foydalangan adabiyotlar ro`yxatidan iborat.

1. BOSHLANG'ICH SINFDA PSIXOLOGIK XIZMAT FAOLIYATI

1.1 Болаларнинг мактабга мослашишини o`rganish ishlari

Maktabgacha bolalik davrida u yoki bu sababga ko`ra yoshiga muvofiq, to`laqonli rivojlanmagan ko`plab bolalar uchun maktabga kelish murakkab sinov bo`lishi mumkin va ular qator muammolarga duch keladi. Bu kabi alohida qiyinchiliklarning pedagogik psixologiya fanida to`rtta guruhi farqlanadi:

1. Kun tartibi bilan bog`liq qiyinchiliklar (ko`proq bolalar bog`chasiga qatnamagan bolalarda kuzatiladi va ixtiyoriylik, o`zini boshqarish, uyushqoqlikning nisbatan past darajasida namoyon bo`ladi).
2. Kommunikativ qiyinchiliklar (tengdoshlari bilan muloqot tajribasi etarli bo`lmagan bolalarda sinf jamoasi, undagi o`z o`rniga o`rganishga qiynalishda namoyon bo`ladi).
3. O`qituvchilar bilan o`zaro munosabatlardagi qiyinchiliklar.
4. Oilaviy sharoitdagi o`zgarishlar bilan bog`liq muammolar.

Afsuski, ko`pchilik o`quvchilar uchun bu muammolar hal etib bo`lmasligicha qoladi. Agar bu holatlarda maktab psixologi, pedagog, ota - onalar tomonidan yordam berilmasa, bolada turli ko`rinishdagi maktab nevrozlari maktabga tayyor emaslikning noadekvat kompensatsiyasi sifatida yuzaga kelishi mumkin.

Shu sababli maktab nevrozlarini erta diagnostikalash, korrektsiyalash va profilaktika qilish dolzarb va favqulodda muhim muammo sanaladi.

6-9 yoshdagi bolalarda nevrotik holat ichki (ortiqcha xavotir, notinchlik, o`ta sezitivlik kabi) va tashqi ijtimoiy omillar sababli kelib chiqishi mumkin:

- oilada noto`g`ri tarbiya (haddan tashqari g`amxo`rlik, ortiqcha talabchanlik, egotsentrik tarbiya);
- tarbiyasidagi bolaga psixologik savodsiz ta`sir, ko`pincha o`quvchini noadekvat baholashga olib keladi;
- kommunikativ malaka va ko`nikmalar etishmasligi;
- o`quvchi pozitsiyasi shakllanmaganligi.

Bu kabi noadaptiv xulqni psixologlar didaktogen yoki maktab nevrozi deb ta`riflaydilar. Bu o`rinda nevroz tibbiy jihatidagi tor ma`noda emas, balki ko`proq

maktab hayotidagi u yoki bu murakkabliklarga noadekvat reaksiya qilish ma'nosida tushuniladi.

Yana bir tez-tez uchraydigan atama - "Psixogen maktab dezadaptatsiyasi" muammosidir. Mazkur muammo, fikrimizcha, favqulodda dolzarb bo'lgani bois uning xususiyatlari ustida yana bir bor to'xtalamiz.

Psixogen maktab dezadaptatsiyasi bola shaxsining maktab va oiladagi ob'ektiv mavqeini buzadigan psixogen reaksiyalar kasalliklar va tuzilmalarni aks ettiradi.

Odatda, maktab nevrozlari besabab agressivlik, maktabga borishdan qo'rqish, darslarga kirish, sinf taxtasi yonida javob berishdan bosh tortish va shu kabi me'yordan chetlangan dezadaptiv xulqda namoyon bo'ladi.

"Maktab xavotirliligi - emotsional beqarorlikning nisbatan engil shakli bo'lib, hayajon, o'quv vaziyatlarida, sinfda ortiqcha notinchlik o'ziga nisbatan yomon munosabat, pedagoglar, tengdoshlari tomonidan salbiy baho kutishda namoyon bo'ladi" - A.M. Prixojan.

Maktab nevrozlari namoyon bo'lishi diapozoni ancha keng, bu ularni tashxislashda aniq mezonlarni belgilashni qiyinlashtiradi. Shu bois maktab nevrozlarining oldini olish va korrektsiyalash uchun kompleks o'yinlar zarur. Ular kichik o'quvchi shaxsi rivojlanishini erta tashxislash, uning yosh va individual xususiyatlari va imkoniyatlarini, o'qituvchilar va ota - onalar bilan doimiy ishlashni talab etadi.

Maktab nevrozlarini tadqiq etish uchun bolani uning maktab va maktabdan tashqari hayotida turli vaziyatlarda kuzatish, o'qituvchilar ota - onalar o'quvchilar bilan suhbatlashish va maxsus psixodiagnostik metodlar zarur. Olingan barcha natijalarni professional talqin qilish psixologga bola muammolarini hal etish imkonini beradi.

Maktab psixologik amaliyotida maktab nevrozi bo'lgan bolalarning bir necha turi farqlanadi:

1. Xulqida aniq chetlanishlar bo'lgan bolalar (darsda o'zlarini yomon tutadi, dars paytida sinfda turib yuradi, o'qituvchiga qo'pollik qiladi, boshqarish qiyin,

faqat sinfdoshlari emas, o`qituvchiga ham agressiv). Odatda, yomon o`qiydi, o`z-o`zini yuqori baholaydi. Ular uchun giperdinamik sindrom, patologik fantaziya sindromi xarakterli. Ko`pincha o`qituvchilar bunday bolalarni pedagogik “qarovsiz”, yoki xatto aqli zaif deb hisoblaydilar.

2. Shunday holatlar bo`ladiki, yaxshi o`zlashtiradigan, darsda o`zini yaxshi tutadigan o`quvchilar ortiqcha yuklama yoki emotsional hayajon natijasida birdan o`zgarib qoladi. Ularda depressiya, apatiya paydo bo`ladi. O`qituvchilar o`quvchini go`yo almashtirib qo`yishdi, u o`qishga qiziqmay qo`ydi deb aytadilar. Bola maktabga borishdan bosh tortadi, qo`pollik qila boshlaydi. Nevrotik depressiya, bog`lanishli hodisalar sindromi kabilar kayfiyat tushishi emotsional labillik, xavotir fonida namoyon bo`ladi. Ba`zan bu guruh bolalarida autizm, to`liq yoki qisman mutizm kuzatiladi.

3. Bu guruh murakkabligi shundaki, tashqi ko`rinishdan muvaffaqiyatli (o`zlashtirish yaxshi, hulq qoniqarli) bolalarda emotsional nomaqbullik alomatlari (javob berishga qo`rqish, og`zaki javob berganda qo`l titrashi kuzatiladi, sekin gapiradi, doim bir chekkada yuradi) kuzatiladi. O`z-o`zini baholash, odatda, past, ko`ngli nozik, senzitivlik, xavotirlilik darajasi baland. Uyatchanligi, ortiqcha xavotirliligi bois o`z qobiliyatlarini to`liq namoyon qila olmaydi. Tadqiqotlar ko`rsatishicha, bunday bolalarda noverbal intellekt verbaliga nisbatan ancha yuqori. Ular faqat yakka tartibda ishlaganda ochiladilar. Bu bolalar uchun fobik va qo`rquv sindromlari xarakterli.

Qo`rquvlarning yana bir alohida guruhini ajratish mumkinki, u biror faoliyatda nomuvofiq bo`lib qolish, atrofdagilarning umidini oqlamaslikdan qo`rqish bilan bog`liq. Bunday o`quvchilarda maktab qo`rquvi o`ta qadrlil qo`rquvlarning o`ziga xos ko`rinishi sifatida kuzatiladi. Buning sababi maktabda intizomni buzgani uchun jazodan, qattiqqo`l o`qituvchidan qo`rqish kabilar bo`lishi mumkin. Natijada bola maktabga borishdan bosh tortishi mumkin. Turli psixosomatik hodisalar - harorat ko`tarilishi bosh og`rig`i, qusish va boshqalar yuzaga kelishi mumkin.

Maktab nevrozlarida psixologik himoya xarakteri va namoyon bo'lishi eng avvalo bolaning oliy nerv faoliyati tipi, uning oiladagi tarbiyasi xususiyatlari, psixik jarohatlovchi vaziyatga bog'liq bo'ladi. Maktab nevrozlarini tashxislashda psixolog, avvalo, noadekvat psixologik himoya shakllariga duch keladi. Bu kabi himoya mexanizmlarini ochib berish nevrotik bolalar bilan ishlashda diagnostik bosqichning eng muhim vazifalaridan biridir.

Keng ma'noda psixologik himoya atamasi "Psixologik diskomfortni bartaraf etuvchi istalgan xulqni" ifodalash uchun ishlatiladi. Buning natijasida negativizm kabi xarakter qirralari, "soxta" almashtiruvchi faoliyat paydo bo'lishi, shaxslararo munosabatlar o'zgarishi mumkin. (B.F. Zeygarnik, B.S. Bratus'). Shaxsning nevrotik tuzilishida himoya noadekvat xarakterga ega va psixologik diskomfortni keskinlashi mumkin. Psixologik himoya anglashilmagan darajada shakllangani bois uning mexanizmlarini proektiv metodikalar yordamida tadqiq etish mumkin.

E.T Sokolova fikricha, «Proektiv metod motivatsiyaning anglashilmagan yoki to'liq anglashilmagan shakllarini o'rganishga qaratilgan va bu jihati bilan inson psixikasining tobora intim sohasiga kirishning deyarli yagona psixologik metodidir».

«Proektiv» atamasi ilk bor Lourens Fenk tomonidan 1939 yilda qo'llangan. Shuningdek u shaxsni tadqiq etishning proektiv metodlari tasnifini ham keltiradi:

- Strukturalash metodikalari (Rorshaxning siyoh dog'lari testi, bulutlar testi, uch o'lchamli proektsiya testi);
- Konstruktsiyalash metodikalari (MAP, olam testi);
- Interpretatsiya metodikalari (SATO, TAT, Rene Jil` testi va b.);
- To'ldirish metodikalari (tugallanmagan gaplar, hikoyalar, Ongning assotsiativ testi);
- Katarsis metodikalari (psixodrama, proektiv o'yin);
- Ekspressiyani o'rganish metodikalari (dastxat, nutqiy muloqot tahlili va b.)
- Ijod mahsulini o'rganish metodikalari (rasmli testlar, elimlash va sh.k.).

Bunday metodikalarning asosiy farqi rag'bat materiallari aniqmasligi, xayrixohlik muhiti va qadriyatli fikrlar mavjud emasligidadir. Ular avvalo

shaxsning munosabatlari sohasini aks ettiradi va maktab nevrozlari uchun xos bo'lgan spetsifik reaksiyalarni aniqlash imkonini beradi.

Test yakka tartibda o'tkaziladi. Avvalo, bolani erkin bo'lishga, masalan bola qiziqishlariga oid o'yin yordamida erishish muhim.

Tadqiqotlar ko'rsatishicha, maktab nevrozi bo'lgan bolalarda o'ziga xos javoblar ko'pchilikni tashkil etadi. Ularda qo'rquv aniq ifodalangan.

Proektiv metodikalar bola shaxsining xususiyatlarini:

- Original reaksiyalar darajasi yuqoriligi;
- Qo'rquv reaksiyasi aniq ifodalanganligi;
- Mavzularning tez-tez perseveratsiyasi, mojaroli vaziyatlardan chetlanish;
- Xavotirlilik, qo'rquvni aniqlash imkonini beradi.

Demak, maktab nevrozlari bola va kattalarning ahamiyatli munosabatlari, bolaning maktab o'zaro hamkorligi tizimida o'z-o'ziga munosabatlari buzilishi sifatida qaralishi mumkin. Bunda nomuvofiqlik va jazodan qo'rqish dezadaptiv xulqni keltirib chiqaradi. Shu bilan bog'liq ravishda guyo ikkita xulq strategiyasi farqlanadi:

- «So'rovchi» strategiyasi - tobe pozitsiyasi;
- Negativ, agressiv hulq strategiyasi (mustaqil)

Zamonaviy tarbiya va pedagogik faoliyat o'z ishining ustalari o'yin pozitsiyasini albatta qo'llaydilar, mashg'ulotlar, darslar muhitini quvonch, yoqimli syurprizlar bilan boyitishga harakat qiladilar. Tarbiyachi, pedagog, ota-onalarning o'yin pozitsiyasi o'z-o'zidan psixoterapevtik bo'lib, «Katta odam-bola», «O'qituvchi-o'quvchi» o'zaro munosabatlari gumanizatsiyasiga ko'maklashadi. Maktabgacha muassasa va maktab psixologining asosiy vazifasi ham shu, uni shakllantirishga intilish lozim, zero, u ham kattalar ham bolalarning nerv quvvatini tejash imkonini beradi. Unutmaslik kerakki o'yin nafaqat boshqalarni tarbiyalash, balki o'z-o'zini boshqarishning ham qudratli quroli, u ijodiy, bilish faoliyatining boshqaruvchisi, tarbiyachi, pedagog, ota-ona hulqi nozikligini ta'minlaydi.

1.2 Kichik maktab yoshining psixologik muammolari va ular bilan olib boriladigan korreksion ishlar

Birinchi marta maktabga qadam qo'yadigan birinchi sinf o'quvchilarining maktabga borganda maktab talablariga sharoitlariga moslashish uchun ma'lum vaqt kerak bo'ladi. Amalda moslashish vaqti hamma bolalarda ham bir xilda samarali o'tmasligi mumkin. Bolaning maktabda moslashishdagi qiyinchiliklar faqat ota - onalar arzlaridagina emas, balki o'qituvchilarning o'quvchilarga berayotgan xarakteristikalarida ham qayd etilmokda. Masalan, ota onalar bolaning maktabga borishi, uy vazifasini bajarishni xohlamayotganini, uning tutqich bermasligi, juda asabiy bo'lib qolganini aytishsa, o'qituvchilar bu bolalarning darsda diqqatsizligida tartibsizligida, tingdoshlari bilan tez-tez aytishib qolishlariga e'tibor berishmokda. Bunday bolalarda asabiy ruhiy buzilish, psixik rivojlanishda orqada qolish vujudga keladi. Bolalar maktabda o'qishga qanchalik tayyor bo'lmasalar, maktabda moslashish davri shunchalik qiyin va uzoq o'tadi. Psixologlar bolani maktabda o'qishga tayyor, deganlarida uning jismoniy, psixologik va shaxsiy tayyorgarligini nazarda tutadilar. Ta'limning dastlabki oylarida maktab psixologining birinchi sinf o'quvchilari bilan olib boradigan asosiy ishlari quyidagilardan iborat:

- a) maktabga moslashishga qiynalayotgan bolalarni aniqlash;
- b) bu bolalarga psixologik yordam ko'rsatish.

Bu vazifani bajarish uchun bolani maktabga moslashishdagi qiyinchilik ko'rsakichlarini aniqlash lozim. Ko'rsatkichlar quyidagicha bo'lishi mumkin:

- 1) O'quv materialini o'zlashtirishda;
- 2) O'qituvchi talablarini bajarishda qiynalish, o'quv vazifalarini bajarishda ixtiyoriylik xususiyatlari harakat aktivligining o'zgarishi, bolaning emotsional xususiyatlari, o'qishga, maktab hayotiga qiziqishlari, o'qituvchi va tengdoshlari bilan muloqotga erishishlaridagi qiyinchiliklaridir.

Bolani har tomonlama psixologik tayyorlab, keyin u bilan olib boriladigan tuzatish ishlarini ko'rsatishi mumkin. Maktablarda "Moslashish" sinflarining ochilishi bu muammoni hal qilishga oz bo'lsada imkon beradi. Psixolog tuzatish

metodlarini rejalashtirayotganda bolani maktabga moslashishiga ijobiy ta'sir etadigan faktorlarni, ya'ni o'quvchining o'zini to'g'ri baholashi, oilada to'g'ri tarbiyalanishi oiladagi kelishmovchiliklarning bartaraf etilishi, tengdoshlar orasida bolani hurmat qozonishini hisobga olish lozim. Maktab psixologining o'zlashtira olmovchi boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan olib boradigan ishlari. uning faoliyatidagi amaliy yo'nalishi tashkil etadi. Psixolog bunday o'quvchilar bilan olib boradigan ishining asosiy yo'nalishlari haqida gapirishdan oldin o'zlashtira olmaslik sabablarini ko'rib chiqamiz. Maktabgacha yosh davridan maktab yoshi davriga o'tish ancha qiyin kechadigan davrdir. etti yoshdagi qiyinchilik bu shunday keskin burilish yoshini unda maktab yoshining barcha davrlari o'z ifodasini topadi. Odatda maktabda borish bilan bog'liq bo'lgan qiyinchiliklar va muammolar quyidagilardan iborat.

Yangi o'quv tartibi bilan bog'liq bo'lgan qiyinchiliklar:

1. Bunday qiyinchilik ko'proq maktabgacha tarbiya muassasalariga bormagan bolalar uchun xosdir.

2. Bolaning sinf jamoasiga moslashuvdagi qiyinchilik.

Bu holat bolalar jamoalariga etarli darajada ishtirok etmaganlarida ko'proq uchraydi.

3. O'qituvchi bilan o'quvchi munosabatlarida yuzaga keladigan qiyinchiliklar.

4. Bolaning oilaviy sharoiti o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan qiyinchiliklar.

Bu qiyinchiliklar bola rivojlanishning yangi ijtimoiy sharoitlarida asta - sekin o'z ifodasini topadi. Psixologlar maktabdan psixogen buzilish bolalar sinfda o'qishdagi qiyinchiliklarning asosiy xususiyatlaridan biri deb ko'rsatadilar.

O'qituvchi bolalarda uchraydigan har qanday qiyinchilikni uning o'zlashtirishi bilan bog'laydi. Bunda bolani baholash odatdagidek o'ziga xos shaklda bo'ladi, a'lochi, demak, yaxshi o'quvchi, past baho olsa – yomon o'quvchi. Masalan, maktabda yomon o'zlashtirgan o'quvchining ota-onasi chaqirtiriladi, g'azablangan o'qituvchi ularga o'z farzandlariga yomon qarayotganliklarini, yomon tarbiya berayotganliklarini ular bilan kam shug'ullanayotganliklarini aytib noliydi. Yana ham achinarlisi o'qituvchi sinf oldida yuqori ovoz bilan bolani so'kadi va

kamsitadi. Ko'pchilik xatoni eng tajribali o'qituvchilar ham o'zlashtirmasligi sababini o'quvchining dangasaligi, noshudligi, tarbiyasizligi bilan baholashga urinadilar. O'qituvchi o'zlashtirmaslikning haqiqiy sabablari to'g'risida kamdan kam o'ylaydi va tabiiyki, uni bartaraf qilishning o'ziga xos chora tadbirlarini izlaydi. Shuning uchun quyida maktab psixologining boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan amalga oshirish mumkin bo'lgan psixologik tuzatish ishlarininng ayrim jihatlarini ko'rib chiqamiz. Misol tariqasida e.L.Yakovlevaning tomonidan taklif etilgan tuzatish dasturini havola qilamiz. Yozilgan so'zlarni tahlil qilish, ulardagi harflarni ko'rish uchun bolalarga diqqat qilish o'yinlari taklif qilinadi. Bu o'yin asosida sinash, tuzatish testi yotadi. Buning uchun katta shrift harflarida bosilgan eski ertak kitoblari olinadi. Bolalarga 5 minut davomida uchragan a harfini chizish taklif etiladi. Bunda bola 4 va undan ortiq a xarfini qoldirsa yutkazadilar, agar kam qoldirsa yutadilar, degan shart qo'yiladi. Yutganlar rag'batlantiriladi. O'yinni har kuni o'ynagan ma'qul, yutuqlar natijasi esa, bir haftada bir marta e'lon qilinadi va g'olib takdirlanadi. Topshiriqni bir-biriga qo'shni bolalarning o'zlari tekshiradilar. Chunki bu yoshdagi bolalar o'z ishlaridan ko'ra o'zgalar ishiga juda qiziqadilar. Shunga ko'ra ular sezmay qoldirgan xatolarga ko'ra ularning bir necha minut davomida diqqat e'tiborlarini to'plagan holatlari juda ahamiyatlidir. Natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, 4 haftadan so'ng o'qituvchining "Diqqat-e'tiborli bo'l" degan shiori bolalarda diqqatning to'planishiga xizmat qiladi. O'yin bilan bir vaqtda bolada ona tili darsligidan o'qish ko'rsatmasi beriladi. Bu usul bilan so'z qanday yoziladi va qanday o'qilishi haqida qiyosiy tushunchaga ega bo'ladi. Ma'lumki, ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiruvchi, diqqatni rivojlanishiga doir mashg'ulotlar o'quvchilarni diqqat-e'tiborli bo'lishga, bilimlarni mustahkamlashga va barcha topshiriqlarni bajarishga o'rgatadi. U mashg'ulotlar quyidagilar: "Aylanalar", "Kvadratlar" , "Uchburchaklar" o'yini, "Muammoni izlashda ziyraklik" va hokazolar.

Masalan, "Aylanalar" mashg'uloti. Mashg'ulot maqsadi: o'quvchilarda ijodiy tafakkurning tezligi, o'zgaruvchanligi va o'ziga xosligini shakllantirishdir.

O`quvchilarga qo`yiladigan talab, ya`ni beriladigan topshiriq quyidagicha: qo`lingizdagi qog`ozning yuqori qismiga ismi – sharifingiz, sinfingizni yozing. Sizning vazifangiz qog`ozga aylanalar chizib, ularning ichiga iloji boricha ko`proq rasmlar tasvirlashdan iborat. Bunda chizgan rasmingizning tagiga nomini yozib qo`ying. O`quvchilar topshiriq bilan tanishtirilgandan so`ng, mashg`ulotni olib boruvchi doskada bir ikkita aylanani chizib, ularni ichiga rasm chizadi va tagida nomini yozib ko`rsatadilar. Masalan: olma, soat, mashina. So`ngra bolalar topshiriqni bajarishga kirishadilar va olingan natijalar qayta ishlanadi.

Psixogimnastika 1979 yilda chex olimi Gan Yunov tomonidan aniqlangan, ya`ni ishlab chiqilgan. Asosan uning metodikasida psixogimnastik mashqlarga pantomimika, guruh o`yinlari va raqs kiritilgan.

Psixogimnastik mashqlar guruh yoki yakka tartibda o`tkaziladi. Psixogimnastika 3 yo`nalishda amalga oshiriladi:

1. Relaksatsiya – insondagi ruhiy zo`riqishni engillatish, qayta tiklash.
2. Ishchanlikni oshirish – faoliyatga kirishishda ruhan qo`llab-quvvatlash, jismoniy faollikni oshirish, energiyadagi muvozanatni saqlash uchun qo`llanadi.

Hissiyotni boshqarish – insonni emotsional holatlarini yaxshilash, o`zgalarni to`g`ri qabul qilish, emotsional holatni to`g`ri namoyon etish ko`zda tutiladi.

Hozirgi vaqtda bog`cha maktab va boshqa ta`lim muassasalarida rivojlanishda nuqsoni bo`lgan bolalar aniqlanadi. Maktabgacha va boshlang`ich maktab tizimi shu muammolarni bartaraf qilishga ham mas`ul bo`lib hisoblanadi. Rivojlanishida ba`zi engil (nutqiy, eshituv va boshqa) nuqsoni bo`lgan bolalar bog`cha va umumta`lim maktab muassasalarida tarbiyalanadilar. Og`ir nuqsonlari bo`lgan bolalar esa maxsus turdagi bolalar bog`chasi yoki maktabga qabul qilinadi, bu muassasalar zarur davolash-sog`lomlashtirish va korreksion, psixologik-pedagogik yordamni bera olish imkoniyatiga ega.

Albatta, ta`lim jarayonida har bir holatga alohida yondoshuv zarur. Chunonchi, og`ir nutqiy nuqsonli bolalar alohida xususiyatlarga ega bo`ladilar.

Shu sababli ularda, umumtaʼlimiy tayyorgarlikdan tashqari, korreksion (tuzatish) yoʻnalishdagi taʼlimga ehtiyoj bor.

Bizda mavjud maxsus bolalar bogʻcha-maktablari oldida turgan muammolardan biri maktab, oila, jamoat tashkilotlari, mahallada shaxsni tarbiyalash va shakllantirishning korreksion-pedagogik-psixologik reabilitatsiya tizimi etarli darajada ishlab chiqilmagan. Maʼnaviy-axloqiy, intellektual va jismoniy tarbiya masalalarining talab darajasiga koʻtarilmaganligi, ota-onalar, oʻqituvchilarning zarur malakaga ega emasligi, shuningdek, xalq pedagogikasi boy merosidagi bilimlardan toʻla xabardor boʻlmaganligidadir. Shu jumladan, turli yoshdagi, ayniqsa, rivojlanishida nuqsonli bolalarni tarbiyalash, oʻqitish bolalarni tarbiyalash va oʻqitish sifatini taʼminlash uchun, maxsus nutqni rivojlantiruvchi bola bogʻcha-maktabini tashkil etish joizdir.

Ayni markaz asosiy vazifasi taqozosiga koʻra, korreksion- rivojlantiruvchi oʻqitish dasturi boʻyicha bolalarni tarbiyalash, davolash va kasallikning oldini olish tadbirlarini olib boradi, rivojlanishida muammosi boʻlgan bolaning maktabgacha va boshlangʻich taʼlim mazmunini oʻzlashtirishga yordamlashadi. Shuningdek, markazda bolalar maslahat -tashxis va tibbiy psixologik, tibbiy-pedagogik jihatdan maxsus bogʻcha va maktablarga tanlab olinadi, salomatligi chuqur oʻrganilib, (mutaxassislarning maslahati va tashxis) ularga psixologik, tibbiy-pedagogik reabilitatsiya va boshqa amaliy yordam koʻrsatiladi

Fikrlarni erkin nutqiy bayon qilishning rivojlanishi 3 yoshdan 12 yoshgacha boʻlgan davrni oʻz ichiga oladi. Shuningdek, ularni atrof-olam bilan tanishtirish, tasavvurlarini bogʻcha yoki maktab oʻquv-tayanch dasturiga muvofiq rivojlantirish bilan bir vaqtda nutqiy nuqsonlarni isloh qiluvchi individual logopedik mashgʻulotlarda bolaga taʼsir qilish ishlari olib boriladi. Bunday mashgʻulotlar nutq talaffuziga asosan oʻqitish materiallarini taqsimotiga koʻra, koʻpaytirib boriladi. Bolalar bogʻchasi, maktablardagi oʻquv tayanch dasturida turli murakkablikda oʻqitilayotgan matnning mazmunini tushunishni rivojlantirishga bagʻishlangan boʻlim kengaytirilgan. Faol va kam uchraydigan soʻzlar lugʻatining muvofiqligini aniqlash, axloqiy-maʼnaviy, mehnat, jismoniy, ekologik

yo`nalishdagi materiallarning mazmunini kuchaytirish ko`zda tutilgan. Bolalar bog`chasida elementar matematika va maktabda matematika dasturida o`quvchilar o`zlashtirishi lozim bo`lgan maxsus tushunchalar va masalalarning shartlari nutqiy ifodalanishiga qaratilgan o`quv jarayoni jadallashtirilgani va yo`naltirilgani alohida e`tiborga olingan. Shuningdek, og`ir nutqiy nuqsonli bolalarga matematikani o`qitishning o`ziga xos jihatlari ifodalangan.

Tabiatshunoslik bo`yicha dasturida esa nutq kamchiliklarini tuzatish orqali rivojlantiruvchi lug`atlar va nutq amaliyotini kengaytiruvchi materiallar berilgan.

Ma`lumki, maktab o`quv fanlari integratsiyasi asosida tashkil etilgan darslar qatorida bolalarning badiiy-estetik madaniyatini shakllantirish bo`yicha fanlar alohida o`rin tutadi.

Asosiy maqsad ta`limning yo`nalishini umumiy kuchaytirgan holda yaxlit nutqiy yondoshuv asosida olib borish va dunyoning ilmiy yagona manzarasini shakllantirish (axloqiy, estetik, ekologik va mehnat orqali) dan iborat. Tajribada ko`rganimizdek, bunday yondoshuv o`quv materialini takrorlanishining oldini oladi, maktabda o`tiladigan fanlar sonini va soatini qisqartirish hamda o`qitiladigan amaliy faoliyatni boyitishga yordam beradi.

Yuqorida ko`rsatilgan kamchiliklar qaysi toifada ko`proq uchrashini bilish maqsadida og`ir nutqiy nuqsonli bolalar bilan bir necha yo`nalishda kuzatish ishlarini olib boriladi.

Bu jarayonda ota-onalar bilan olib boriladigan ishlarga ham alohida e`tibor berish lozim. Ma`lumki, hozirgi vaqtda bolani va uning rivojlanishini kuzatish masalalari: organik jihatdan tashxis muammolari va uni hal etishning sub`ektiv jihatini muammoni hal etish imkoniyatini axborotlar orqali izlash, faoliyat rejalarini loyihalashtirish va rejani amalga oshirishda boshlang`ich yordam ko`rsatish kabi yaxlit masalalarni oladi.

Tashxisning to`g`ri qo`yilishi muvaffaqiyatning garovi hisoblanadi. Xususiylar tashxis qo`yilishi bilan muammo rivojini hal etishga qaratilgan jarayon boshlanadi.

Tashxis metodidan kelib chiqib, mutaxassislar korrektsiya-axborot me`yorlari metodini ishlab chiqdilar va u kuzatuvchi hamda kuzatiluvchining o`zaro

hamkorligi shaklida ifodalanadi. Tashxis muammolarining rivojlanishi turli soha mutaxassislarining pedagog, psixolog, tibbiy xodimlarning o`zaro kelishuviga bog`liq bo`ladi.

Biz bola rivojlanishidagi negativ omillar, ya`ni «rivojlanmaganlik», «etishmovchilik» va boshqalarni tadqiq etish doirasida hal qilishga intilyapmiz. Biroq, u yoki bu darajadagi nuqsonlarni bolaning shu davrdagi ahvoliga ko`ra baholash o`z-o`zidan muammoni hal qilish yo`llari, imkoniyati haqidagi axborotning kichik bir qismini beradi, xolos.

Tizimda loyihalashning mantiqiy rivojlanishidagi ancha murakkab qarama-qarshi jarayonlarda mutaxassislar bolalarda ko`p uchraydigan muammolarning samarali echimi dasturini ishlab chiqishadi va shu asosda pedagoglar rivojlanish yo`lini belgilaydilar.

Kuzatish natijalarini baholash uchun esa tashxis modelini tuzish masalasi yuzaga keladi. Shuning uchun bolaga nisbatan tizimli yondoshuv va sub`ekt shaxsi kichik dunyosining tashqi muhit bilan o`zaro munosabatlari tavsifnomasi tahlilini tashxis tadqiqotlariga yo`naltirish zarur.

Psixologik tashxis ustida ishlovchi mutaxassislar keyingi vaqtlarda bola holatining murakkab psixologik malakalari sezilarli darajada o`sganligini e`tirof etmoqdalar.

Ayni holat ta`lim dasturlarining barcha darajada sezilarli chuqurlashganiga, bolalar umumiy rivojlanishi esa ma`lum darajada ortda qolayotganiga bog`liq.

Bu mamlakatdagi ba`zi umumiy ijtimoiy madaniy holatlardagi o`zgartirishlardan kelib chiqadi. Yangi madaniyatshunoslik sohasidagi ta`limlar (shu jumladan, aholining turli zamonaviy kompyu`ter texnologiyasi bilan munosabati va rivojlanishning virtual shakli) ga xos.

Demakki, mazkur sohada yangi yo`llarni izlashga yanada ko`proq ehtiyoj tug`ilmokda va bola muammolarini o`rganishning psixologik va pedagogik malakalari, tashxis ishlari darajasi asosiy ko`rsatkichi doimo diqqat markazida bo`lishi joiz.

Xullas, bola holatini o`rganishda bunday ko`p bosqichli psixologik tashxis tizimi nihoyatda qo`l keladi. U faqatgina bola holatining eng dolzarb fenomenlarini ko`rsatibgina qolmay, balki ishonchli istiqbol tashxisini ham ta`minlaydi, bolaning keyingi rivoji va o`qishi, korreksion (tuzatish) ishlarining yanada samarali dasturlarini ishlab chiqish imkoniyatini beradi. Bolalar bilan ishlashning zamonaviy tajribalari shuni ko`rsatadiki, ayrim hollarda bola holati faqatgina yaxshi tomonga emas, balki u yoki bu sabablari, o`qitish va sharoit rivojiga bog`liq tarzda yomon tomonga o`zgarishi mumkin. Shunday qilib, biz faqatgina «yaqin rivojlanish zonasi»ni emas, balki rivojlanishning og`ish deviatsiyasi sohasini ham nazardan qochirmasligimiz zarur.

Artterapiya

Artterapiya dastlab Z.Freyd va K.Yungning egodagi himoya mexanizmlarining namoyon bo`lishi sifatidagi nazariy g`oyalari asosida vujudga keldi (sublimatsiya, proektsiya). Dastlab psixoanalizda paydo bo`lgan artterapiya hozirda barcha yo`nalish vakillari tomonidan keng qo`llanilmoqda. Artterapiyaning yutug`i shundaki, u tarapevtik aloqani o`rnatishni chuqurlashtirishga yordam beradi. Bir vaqtning o`zida ham tarapevtik va diagnostik metod hisoblanadi, psixoterapiyaning har qanday shakli va vaziyatlarida qo`llash mumkin. Turli vositalardan foydalanish imkoniyati mavjud – qalamcha bilan qumga chizishdan, oddiy qalam bilan san`at asari yaratish va haykal yasash ham mumkin, turli muammolarni hal qilishda foydalanish mumkin. Artterapiya bolalarda xavfsizlik hissini rivojlantiradi.

Artterapiyaning mahsuldorligi shundaki, birinchidan, nizoli vaziyatlar simvolik shaklda qayta paydo bo`ladi, rasmlar yordamida tashqariga chiqariladi, shu tariqa uni muhokama qilish va qarr qabul qilish mumkin. Ikkinchi tomondan ijod jarayonining o`zi shaxsning o`shishiga, o`zini o`zi namoyon qilishga, o`zini o`zi rivojlantirishga imkoniyat yaratadi, hayotiy qiyinchiliklarni engish uchun ichki imkoniyatlarni topish imkonini beradi.

Artterapevtik metodning afzalliklaridan biri juda kuchli qarshilik bo`lganda ham bola bilan aloqa o`rnatish oson bo`ladi. Psixolog oldiga kelganda

bola har doim ham o`z muammosi haqida gapirgisi kelmaydi, lekin nimanidir chizib berish so`ralganda, hech qachon qarshilik qilmaydi. Bola kuchli hayajonlanganda, uning nafaqat gapirgisi balki o`z muammolarini chizgisi ham kelmaydi. Bunday holda o`z muammolarini boshqa tilda ifodalash imkonini beradigan majoziy rasmdan foydalanish mumkin.

Artterapiyada diagnostik va terapevtik jarayonlar bir vaqtda ro`y beradi. Artterapiya mahsullari qimmatbaho diagnostik material hisoblanadi. Bu esa artterapiyani proektiv testlarga yaqinlashtiradi. Ba`zi mualliflar uni ekspressiv proektiv metodlarga kiritadi. Artterapevtik tahlil asosiy emas, balki rasm muallifi o`zini qanday tushunishi, ko`rishi muhim.

O`z ijodi mahsullarini tasvirlash va muhokama qilish jarayonida mijozning o`z ichki his-tuyg`ularini anglashi ro`y beradi. O`z muammo va nizolarini asta-sekin bayon etish, ularni bartaraf etish va hal qilishga olib keladi.

Artterapiya uchun maxsus xona yoki sinfdan foydalanish mumkin. Xonada umival`nik bo`lishi maqsadga muvofiq. Maxsus fartuk yoki xalatdan foydalanish mumkin. Artterapiya materiallari har xil bo`lishi mumkin: kraska, qalamlar, flamasterlar, rangli qog`ozlar, kley, qaychi, karton, ip, tayoqcha, mel, qum, tuproq, plastilin, gullar, materaillar, tuxumning po`chog`i.

Artterapevtik mashg`ulotlarni asosiy to`rt bosqichga bo`lish mumkin. Dastlabki bosqichda ishtirokchilar tasodifiy ijodiy faoliyatga tayyorlanadi. Buning uchun turli o`yinlar va maxsus mashqlardan foydalaniladi: “Erkin bo`ling va nimani kerak deb hisoblasangiz, shuni amalga oshiring”,– degan qo`llanma aytiladi.

Ikkinchi bosqich asarni yaratish jarayonidir.

Uchinchi bosqich – o`z ishini muhokama qilish jarayoni.

To`rtinchi bosqichda har bir guruh a`zosining muvaffaqiyatini ta`kidlash va mashg`ulot haqida iliq taassurotlar almashinadi.

2.MAKTABGA QABUL QILINGAN BOLALAR UCHUN KORREKTSION RIVOJLANTIRUVCHI MASHG`ULOTLAR

2.1 Maktabga qabul qilingan olti yoshli bolalar uchun korreksion rivojlantiruvchi mashg`ulotlarni o`tkazish bo'yicha tavsiyalar

Bola maktabga borgan paytidan boshlab moslashishi jarayonida qiyinchiliklarga duch keladi. Ko'pgina hollarda bolalarda bilish jarayonlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi, ijtimoiy moslashuvning shakllanmaganligi ta'lim jarayonida qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Hattoki aqlan yetuk, jismonan sog'lom bola ham maktab talablariga moslashishda qiynaladi. Bu talablar 1-sinfga qabul qilingan boladan ko'p mehnat va irodani talab etadi. Shu bilan bir qatorda maktab amaliyotchi psixologi va sinf rahbari zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Bunda bolalarning maktab sharoitiga moslashish jarayonini o'rganish muhim sanaladi.

Ushbu «Korreksion rivojlantiruvchi mashg`ulotlar» majmuasi olti yoshli bolalarning ta'lim olishlarida uchraydigan muammolarni bartaraf etish maqsadida e'tiboringizga havola etilmoqda.

Majmuadan o'rin olgan mashg`ulotlar bolalarning bilishga doir psixik jarayonlari: diqqat, tafakkur, idrok, tasavvur, xotira, shuningdek, o'qish, yozish malaka va ko'nikmalarini boyitib borish kabi aqliy imkoniyatlarining ta'lim talablariga munosib tabiiy shakl, o'yinlar yordamida rivojlantirib borishni ta'minlaydi. Har bir mashg`ulotni bajarish uchun ilovalar berilgan.

Mashg`ulotlarni o'tkazib borish jarayonida o'quvchilar bilan samimiy, erkin muloqotda bo'lish, ularni shoshirmasdan to'g'ri tushuntirib borish, o'yin tariqasidagi tabiiy muhitni yaratish, bolalarning qobiliyatlarini xolisona tarzda baholash muhim omillardan biri bo'lib sanaladi.

Albatta, mashg`ulotlarni qo'llashda psixolog, pedagog, ota – onalar faqat ushbu mashg`ulotlar bilan cheklanmasdan etnik psixologik xususiyatlardan kelib chiqqan holda qo'shimcha korreksion mashg`ulotlardan foydalanishlari ham mumkin.

Mashg'ulotlarni o'tkazib borish jarayonida o'quvchilar bilan samimiy, erkin muloqotda bo'lish, ularni shoshirmasdan to'g'ri tushuntirib borish, o'yin tariqasidagi tabiiy muhitni yaratish, bolalarning qobiliyatlarini xolisona tarzda baholash muhim omillardan biri bo'lib sanaladi. Bolalarning maktabga psixologik moslashuvi va rivojlanish dinamikasini o'rganish maqsadida ushbu korreksion rivojlantiruvchi mashg'ulotlarining natijalariga tayanish mumkin.

1. Quyida keltirilgan mashg'ulotlar bolalarning fikrlashi, diqqat, xotira, nutq, mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

“Buni qanday qo'llash mumkin”

Bolalarga imkon qadar ko'p hollarda ishlatilishi mumkin bo'lgan predmet nomini ayting. Har bir bola o'z uslubini taklif qilishiga erishing. Masalan: Siz qalam so'zini aytishingiz mumkin. Uni ishlatish yo'llari turlicha bo'lishi mumkin: rasm chizish, yozish, ko'rsatkich sifatida va hokazo.

“Tovushlarni aniqla”

Bolalar aylana bo'lib o'tiradilar, Bolalardan biri yetaklovchi bo'ladi. U boshqa o'yinchilarga nisbatan teskari turadi. Shu vaqtda bolalardan biri qisqacha (2-3 so'zdan iborat) gap aytadi, masalan, Oltin kuz keldi. Yetaklovchi bu gapni kim aytganligini tovushidan aniqlashi kerak. Har bir bola etaklovchi bo'lib chiqishi kerak.

“Xatolarni to'g'rilaymiz”

Bolalar aylanaga turadilar. Olib boruvchi turli xatolari bo'lgan gapni aytadi. Bunday gaplar har bir bolaga taqdim etiladi. Qaysi bola gapda xato topolmasa o'yindan chiqadi. Oxirida qolgan bola g'olib hisoblanadi. Masalan, Archa daraxtida olmalar pishdi. Osmonda uchta zog'ora baliq uchyapti.

“Umumiylikni izlash”

Bolalar aylana qurib o'tiradilar. Olib boruvchi bolalardan biriga to'pni otayotib, bir-biri bilan bog'lanmagan 2 ta so'zni aytadi. Masalan: maktab va o'qituvchi, kitob va javon, quyosh va gul va hokazo. To'pni tutib olgan bola so'z juftligi orasidagi umumiy belgini aytib to'pni qaytaradi.

2. Bolalarning xotirasi, diqqati, idrokini rivojlantirish bo'yicha mashg'ulotlar

“Kim sinchkovroq”

O‘yin ishtirokchilari yarim doira bo‘lib o‘tiradilar va yetaklovchi tanlaydilar. Yetaklovchi 1-2 daqiqa ichida o‘yin ishtirokchilarining joylashish tartibini eslab qolishi kerak. So‘ng teskarisiga qarab ularni nomma-nom eslaydi. Har bir bola yetaklovchi bo‘lib chiqishi shart.

“To‘rtinchisi ortiqcha”

Bolalar aylana bo‘lib o‘tiradilar. Olib boruvchi biron bir bolaga to‘pni otib, uchta bitta umumiy tushunchaga ega bo‘lgan 4 ta predmet nomini aytadi. Bola shulardan bitta ortiqchasini aytib, to‘pni qaytarishi kerak (masalan, kitob, daftar, qalam, deraza).

“Ayg‘oqchi”

Biron bir bolani bir necha daqiqaga xonadan chiqib turishini taklif eting. Shu vaqtda xonada qolgan bolalar oralaridan bir bolani tanlab qo‘yadilar. Shundan so‘ng tashqaridagi bola kirib, o‘yinchilarga teskari turadi va tanlangan bolani tashqi qiyofasi bo‘yicha savollar beradi. Savollar

soni 1-3 tagacha bo‘lishi mumkin. Savollarga javob olgandan so‘ng “ayg‘oqchi” bolalar kimni tanlashganini aytib berishi kerak. Har bir bola “ayg‘oqchi” bo‘lib chiqishi kerak.

“Kim ko‘p”

Bolalarga 1 daqiqa davomida xonani aylanib, atrofni kuzatish taklif etiladi. Asosiy vazifa doira shaklidagi predmetlarni topib, eslab qolishdan iborat. So‘ng barcha bolalar aylana shaklida o‘tiradilar va navbatma-navbat eslab qolgan predmetlarning nomlarini aytishadi. Biron ta so‘z aytolmagan bola o‘yindan chiqadi. Oxirida doira shaklidagi predmet nomini aytgan bola g‘olib deb topiladi.

3. Bolalarning og‘zaki nutqini, predmetlarni guruhlashtirishni, umumlashtirishni rivojlantirish bo‘yicha mashg‘ulotlar

“Jumlani tugat”

Bolalar aylana bo‘lib o‘tiradilar. Boshlovchi ularning biriga koptokni otadi va jumlaning boshlanishini aytadi. Koptokni olgan bola gapni tugatishi va koptokni boshlovchiga qaytarishi kerak.

O'yin shu tariqa davom etadi. Ikki marta gapni tugallay olmagan bola o'yindan chiqadi va boshqalarni diqqat bilan kuzatib turadi.

Kechasi qorong'i, kunduzi esa...

Qishda sovuq, yozda esa...

Qush uchadi, ilon esa...

Ertalab nonushta qilamiz, kunduzi esa...

Xo'roz qichqiradi, mushuk....

Qo'shimcha o'yin va mashqlar

«Xuddi shunday rangdan top».

Maqsad: O'quvchilarning idrok va diqqatini rivojlantirish.

Ishning borishi: Stol ustiga shakli, rangi bir xil bo'lgan lekin o'n ikki bo'lakka bo'lingan to'rt burchak shakli yoyib qo'yiladi. O'quvchilar ana shu 12 ta shaklni bir – birining yoniga qo'yib bir minut vaqt ichida 4 burchak shaklini yasashlari lozim.

«Hammaga yetadimi?»

Maqsad: O'quvchilar tafakkurini o'stirish

Ishning borishi: O'quvchilarga hayvonlar rasmi va ozuqalari tasvirlangan rasmlar ko'rsatiladi. O'quvchilar qaysi hayvonga ozuqa yetmasligini topib ko'rsatishlari kerak.

«Sen ayiqning o'rnini qanday joylashtirgan bo'lar eding?»

Maqsad: O'quvchilarning diqqatini va tafakkurini o'stirish

Ishning borishi: Stol ustiga tartibsiz ravishda, ayiqchaning uxlashi, badan tarbiya mashqlarini bajarishi, yuvinishi, o'qishi, o'ynashi va nonushta qilishi tasvirlangan rasmlar aralashtirib qo'yiladi. O'quvchilar tartib bilan rasmlarni o'z o'rniga qo'yib joylashtirishlari kerak.

«O'xshashini olib kel»

Maqsad: O'quvchilarning esda saqlash xotirasini o'stirish.

Ishning borishi: Turli o'yinchoq va buyumlarning tasvirlangan rasmlari o'quvchilarga tarqatiladi. O'qituvchi yoki psixolog tomonidan o'yinchoq yoki biror buyum tasvirlangan rasm bir-ikki sekund ichida ko'rsatilib olib qo'yiladi.

O'quvchi ko'rsatilgan rasmni xotirasida saqlab, stol ustida qo'yilgan rasmlar orasidan topib ko'rsatishi kerak.

«Bu qanday hayvon?»

Maqsad: O'quvchilar xotirasini rivojlantirish.

Ishning borishi: O'qituvchi o'quvchilarga echki, buzoq, qo'y, bo'taloq, ot, ho'kiz rasmlarini tarqatib chiqadi. O'qituvchi hayvonlarning ovozigacha taqlid qilib, ovoz chiqaradi, o'quvchilar esa, eshitilgan ovozni tanib, shu hayvon tasvirlangan rasmni ko'taradi.

«Ajoyib xaltacha»

Maqsad: O'quvchilarning sezgi, idrokini o'stirish.

Ishning borishi: Psixolog xaltachaga turli sabzavotlarni soladi: sabzi, piyoz, kartoshka, sholg'om, turp, karam. O'quvchilarning ko'zlari bog'lanadi, barmoqlari, kaftlari va qo'llari yordamida paypaslab sabzavotlarni topib, nomi nima ekanligini aytganlaridan so'ng, sabzavot xaltachadan olinadi. Sabzavot nomini to'g'ri topgan o'quvchi rag'batlantiriladi.

«Nima yetishmaydi?»

Maqsad: O'quvchilar idrokini o'stirish.

Ishning borishi: Turli xil buyumlar va ularning bo'lagi tasvirlangan rasmlar, masalan, choynakning qopqog'i yo'q, stolning bir oyog'i yo'q. Stolning ustiga rasmlarning teskari tomoni o'girib qo'yiladi, detallarning esa o'ng tomoni qo'yiladi. O'qituvchi o'quvchini chiqarib, rasmlarning birini olishni taklif etadi. O'quvchi olgan rasmdagi narsaning nomini aytadi va rasmda yetishmaydigan detall qismini olib ko'rsatadi.

«Buzilgan telefon»

Maqsad: O'quvchilarning eshitish sezgisini rivojlantirish.

Ishning borishi: O'quvchilar aylana shaklida o'tiradilar. Birinchi partadagi o'quvchining qulog'iga sekin bir so'z aytiladi.

Oxirgi partada o'tirgan o'quvchi shu so'zni baland ovoz bilan aytishi kerak. Agar so'z to'g'ri aytilgan bo'lsa, telefon yaxshi ishlaydi. So'z xato aytilsa, telefon buzilgan, uni tuzatish kerak ya'ni telefon qayerda buzilganligi aniqlanadi.

«Kim chaqirdi?»

Maqsad: O'quvchilarning sezgi, idrokini rivojlantirish.

Ishning borishi: O'quvchilar doira shaklida o'tiradilar. Bolalarning biri ko'zini yumib yoki orqasini o'girib turadi. O'quvchilarning biri uning ismini aytib chaqiradi. Ko'zini yumib turgan bola qaysi o'quvchi uning nomini chaqirganini topishi kerak.

«Ta'midan top»

Maqsad: O'quvchilarning sezgi, idroklarini o'stirish.

Ishning borishi: Stol ustiga to'g'ralgan meva va sabzavotlar likopchada qo'yiladi. O'quvchilar diqqat bilan o'tirishadi. O'qituvchi bolalarga likopchalarda meva yoki to'g'rab qo'yilgan sabzavotlardan totib ko'rib, ta'mini aytib berishini taklif etadi. Shundan so'ng o'quvchilardan biri ko'zlarini yumib turadi, ikkinchi o'quvchi uni mehmon qiladi. Bola mevaning ta'mini totib ko'rib, uning nomini aytib beradi. Bu o'yin orqali bolalarning sezish, idrok qilish jarayoni rivojlanadi.

«Bu qachon bo'ladi?»

Maqsad: Yil fasllarining o'ziga xos belgilari to'g'risidagi tasavvurlarini mustahkamlash.

Jihoz: Qog'oz shakli to'rtga bo'linadi. Har bir qismida yilning 4 ta fasli tasvirlangan bo'ladi.

Ishning borishi: Bola psixologning iltimosiga ko'ra, har bir faslning o'ziga xos xususiyatlarini, ta'rifini aytadi.

«Kerakli rasmni top»

Maqsad: Narsalarning nomini, va nima uchun ishlatilishini, joyini aniqlashga o'rgatish. Bolalarning tafakkurini o'stirish.

Jihoz: Ish mazmuni aks ettirilgan rasm. Ertalabki yuvinish, kiyinish, ovqatlanish kabi faoliyatlar aks ettirilgan mazmunli rasm bo'lishi mumkin.

O'yinni o'tkazish: mazmunli rasmlarning birortasi bolalarga ko'rsatiladi. Rasmlarda nimalar aks ettirilganligini bolalar yaxshilab ko'rib olganlaridan so'ng, biror bolaga rasmlarni stol ustiga qo'yib chiqish so'raladi. Rasmlarni qo'yib chiqqandan keyin, bolalarning birortasi chaqirilib, rasmda aks ettirilgan faoliyat

haqida soʻzlab berishni va stol ustiga qoʻyilgan har bir buyumning nomini aytishni taklif etadi.

«Uchadi, uchmaydi»

Maqsad: Eshitish sezgisini, mantiqiy tafakkur va idrokni rivojlantirish.

Masalan: chumchuq – uchadi

ilon – uchmaydi

sigir – uchmaydi

bedana – uchadi

Oʻyinning borishi: bolalarga biror hayvon nomi aytiladi, bolalar aytilgan hayvon harakatini bajarib koʻrsatadilar, uchmaydigan hayvon nomi aytilsa, jimgina oʻtiradilar.

«Kim chaqqon»

Maqsad: Koʻrish, harakat sezgilari, rangni va fazoviy munosabatlarni idrok qilish tushunchalarini rivojlantirish.

Ishning borishi: Stol ustiga 12 ta shakl tartibsiz holda yoyib qoʻyiladi. Shakllar har xil rangda va kattalikda boʻlishi kerak. Oʻqituvchi bolalarning birini chaqirib shaklni tez topib berishni taklif etadi, shaklni tez topgan bola uni baland koʻtarib, uning nomini va nima uchun toʻrt burchakligini, rangini, katta- kichikligini aytadi. Oʻyin oxirida gʻoliblar aniqlanadi.

«Kim chaqirdi»

Maqsad: Bu oʻyin orqali bolalarning eshitish sezgisini va idrokini rivojlantirish.

Ishning borishi: Bolalar doira shaklida oʻtiradilar, bolalardan birortasi koʻzini yumib yoki orqasini oʻgirib turadi, oʻquvchilardan birortasi shu oʻquvchining nomini aytib chaqiradi. Koʻzini yumib turgan bola qaysi bola uni chaqirganini topa olishi kerak.

«Kimning qoʻlida nima bor?»

Maqsad: Oʻquvchilarning sezgi, idrokini rivojlantirish.

Ishning borishi: Psixolog bolalarning doira boʻlib, qoʻllarini orqalariga qilib turishlarini taklif etadi va qoʻllariga olma, behi, sabzi, nok qoʻyadi. Kimda olma boʻlsa, meni oldimga yugurib kelsin deydi.

Shu tariqa biror bir mevaning nomi aytilganda, bolalar birin – ketin psixolog yoniga keladilar, o‘yin shu tarzda davom etadi.

«Tez javob ber»

Maqsad: Tafakkur turlarini rivojlantirish

Ishning borishi: (Bu o‘yinni o‘n yoshgacha bo‘lgan bolalar bilan o‘tkazish mumkin.) Psixolog bilan bolalar davra bo‘lib o‘tiradi. Qo‘lidagi koptokni bolalarning biriga tashlab predmetning rangi yoki formasi, xususiyatlaridan birining nomini aytadi. Bola esa bunga mos biror so‘zni tanlab koptokni qaytarib beradi.

Masalan: yashil – barg, o‘t, aylana – oy, quyosh. Bolalar o‘yinni o‘zlashtirgach qo‘shimchalar kiritish mumkin.

«Uchta predmetning nomi»

Maqsad: Tafakkurning umumlashtirish jarayonini rivojlantirish.

Ishning borishi: Psixolog va bolalar davra bo‘lib o‘tiradilar. O‘yinni olib boruvchi o‘yin qoidasini tushuntiradi.

Men hozir bir so‘z aytaman, sizlar shu so‘zga mos keladigan 3 ta so‘z to‘plashingiz kerak.

Masalan: mebel – stol, stul, divan. Gul – atirgul, chinnigul, lola

O‘quvchilar o‘yinni o‘zlashtirgandan keyin unga o‘zgartirish kiritish mumkin yoki avval tarkibiy so‘zlarni aytishi, undan keyin umumiy so‘zlarni topishi kerak. Cho‘mich, qoshiq, qozon – oshxona buyumlari.

«Men ham»

Maqsad: Mantiqiy tafakkur va idrokni rivojlantirish.

Ishning borishi: O‘qituvchi biror ertakni yoki hikoyani tanlaydi va bolalarga tushuntiradi. Hozir men sizlarga ertak aytib beraman. Sizlar ham ertakni qahramonlari bilan qo‘shila olsangiz «Men ham» deb aytasiz. Bo‘lmasa jimgina o‘tirasiz. Pedagog men daladan gul terayapman..., tovuq 5 ta jo‘jasi bilan men tomonga kelayapti... Shu payt kalxat keldi...

Tovuq jo‘jalari bir tomonga, men esa boshqa tomonga qochdim... Har bir gapdan keyin pedagog pauza qiladi, ya’ni bolalarning fikrlashi uchun sharoit yaratishi kerak.

«Sharning ipini top»

Maqsad: Bolalarni ranglarni ajratishga o‘rgatish.

Mashg‘ulot jihozi: Qog‘ozdan qirqilgan har xil rangdagi shakllar va shu ranglarga mos qog‘oz «ip»lar.

Ishning borishi: Stol ustiga sharlar va iplar alohida qo‘yiladi. Bolalarga sharlarni o‘z ipi bilan bog‘lash lozimligini tushuntiriladi va sharlarning ipini topish aytiladi.

«Kim birinchi bajaradi»

Mashg‘ulot jihoz: Ikki shishachada rangi bir xil bo‘lgan 48 dona toshcha yoki tugmacha solib qo‘yiladi.

Maqsad: O‘quvchilarning irodasini tarbiyalash.

Ishning borishi: Ikki bola yuzma – yuz qilib stolga o‘tqaziladi. Har biriga shishacha va 24 dona toshcha beriladi. Toshchalarni shishachaga bir donadan solishlari kerak. Sinfdagi boshqa bolalar ular ishini kuzatib turadi. Ishni kim birinchi tugatsa, g‘olib hisoblanadi. O‘yin shu tariqa davom ettiriladi.

«Kim aqlli»

Maqsad: Qo‘l motorikasini rivojlantirish

Ishning borishi: Ikki quti gugurt stol ustiga qo‘yiladi. Ikki bola qarama-qarshi tarzda stolga o‘tiradi. Gugurt donalari tartibsiz ravishda yoyib qo‘yiladi. Gugurt donalarini tartib bilan qutiga solish vazifasi topshiriladi. Qaysi bola gugurt donalarini tartib bilan joylashtirsa, tafakkur jarayonining yaxshi rivojlanganlik darajasini bildiradi. Bu o‘yin orqali bolalarning ishchanlik qobiliyatlari rivojlantiriladi.

«Bu nimaning rasmi edi»

Maqsad: Idrokni rivojlantirish

Jihoz: Mushuk va itning to‘rt bo‘lak qilib qirqilgan rasmlari.

Ishning borishi: Ikki bola stolda qarama – qarshi tarzda o‘tiradi, stolda qirqilgan rasm bo‘laklari aralashtirib qo‘yiladi. Bolalarning har biriga mushuk va itning

rasmini bo‘laklardan tiklash so‘raladi. Kim rasmni birinchi bo‘lib tiklasa, o‘sha bola g‘olib hisoblanadi. Bu o‘yin orqali bolalarning sezgi, idrok, diqqati rivojlanadi.

«Nima o‘zgardi»

Maqsad: Xotira, diqqat, sezgini rivojlantirish.

Ishning borishi: Stol ustiga yoki doskaga bir necha rasm qo‘yiladi. Bolalarga rasmlarni yaxshilab ko‘rishlari va eslab qolishlari aytiladi. Keyin bolalar ko‘zini yumib turadi, shu vaqtda rasmning bir yoki ikkitasining o‘rni o‘zgartirib qo‘yiladi.

Savol: Nimaning o‘rni o‘zgardi? Bola shuni topib, eslab qaysi rasmning o‘rni o‘zgarganini aytishi lozim.

«Yanglishma»

Maqsad: Bolalarning diqqati, esda saqlab qolishi va qayta esga tushirish jarayonlarini rivojlantirishga o‘rgatish.

Ishning borishi: Psixolog va bolalar davra bo‘lib o‘tirishadi. Doskaga ikki o‘quvchi chiqariladi. Bir o‘quvchi ikkinchi o‘quvchini boshdan oyoq kuzatib, uning kiyimlari qanaqa ekanligini va nomini ovoz chiqarib aytadi. O‘rtog‘ining kiyimlarini kuzatgan bolaning ko‘zi bog‘lanadi u orqa o‘girib turadi. Esda saqlab qolgan narsalarning nomini aytishi lozim. O‘quvchilar uni kuzatib, tekshirib turadi va «to‘g‘ri», « noto‘g‘ri» deb tasdiqlab turadi. O‘quvchi uch marta yanglishsa, o‘rniga boshqa o‘quvchi chiqariladi va o‘yin davom ettiriladi.

«Bu kim»

Maqsad: Sezgi, diqqatni rivojlantirish.

Ishning borishi: Psixolog va bolalar davra bo‘lib o‘tiradi. O‘rtaga bir bola chiqariladi, o‘rtoqlarini yaxshilab kuzatgandan so‘ng orqa o‘girib turadi.

Psixolog bolaga, men hozir o‘rtoqlaringdan birini kiyimining belgilarini aytaman, sen mening aytganlarimni yaxshilab eshitib, men kim haqida gapirayotganligimni topishing kerak, deydi. Masalan, sochi sariq, shapkasi oq, ko‘ylagi qizil.

Agar bola uning kim ekanligini topa olmasa, o‘rni almashtiriladi. Uch marta topgan o‘quvchi g‘olib hisoblanadi.

6-yosh bolalarning maktabga moslashishini o`rganish

Boshlang`ich sinf o`quvchilarining o`quv motivini aniqlash so`rovnomasi:

1. Senga maktab yoqadimi yoki unchalik emasmi:

- unchalik emas (1 b)
- yoqadi (2 b)
- yoqmaydi (0 b)

2. Ertalab turgan paytingda sen quvonch bilan maktabga ketasanmi yoki ko`proq uyda qolishni istaysanmi:

- ko`proq uyda qolishni istayman (0 b)
- xar xil bo`ladi (1 b)
- quvonch bilan maktabga ketaman (2 b)

3. Agar o`qituvchi ertaga maktabga hamma kelishi shart emas, kim hohlasa uyda qolishi mumkin desa, sen maktabga borarmiding yoki uyda qolarmiding?

- bilmadim (1 b)
- uyda qolar edim (0 b)
- maktabga borar edim (2 b)

4. Qaysidir darslar bo`lmasa senga yoqadimi?

- yoqmaydi (2 b)
- har doim har xil bo`ladi po-raznomu (1 b)
- yoqadi (0 b)

5. Uyga topshiriq berilmasligini hohlarmiding?

- hohlar edim (2b)
- hohlamas edim (0b)
- bilmadim (1b)

6. Maktabda faqat tanaffuslar bo`lishini hohlarmiding?

- bilmadim (1 b)
- hohlamayman (2 b)
- hohlayman (0 b)

— 7. Ota-onanga maktab xaqida ko`p gapirib berasanmi.

- ko`p gapiraman (2 b)

- onda-sonda (1 b)

- gapirib bermayman (0 b)

8. O`qituvching qattiq qo`l bo`lishini hohlaysanmi.

- aniq bilmayman (1 b)

-hohlar edim (0 b)

-hohlamayman (2 b)

9. Sinfda sening do`sting ko`pmi.

- oz (1 b)

- ko`p (2 b)

- do`stim yo`q (0 b)

10. Senga sinfdoshlaring yoqadimi.

- yoqadi (2 b)

- unchalik emas (1 b)

- yoqmaydi (0 b)

1. 20-19 ball- bolada maktab motivatsiyasi juda yaxshi.

2. 18-13 ball – bolada maktab motivatsiyasi yaxshi.

3. 12-7 ball- bolada maktab motivatsiyasi o`rta.

4. 6-0 ball- bolada maktab motivatsiyasi past.

Bolalarning maktabga moslashuvini o`rganishda quyidagi usul, ya`ni “ertak terapiya” usulidan ham foydalanish mumkin

“Hayvonlar maktabi” metodikasi

Jihozlar: qog`oz, rangli qalamlar.

Psixolog: *Hozir biz sizlar bilan ajoyib bir o`rmonga sayrga chiqamiz O`zingizga qulay holatda o`tirib oling va ko`zingizni yuming. Tasavvur qiling, Biz Siz bilan quyoshli bir o`rmon darasidamiz. Boshingiz tepasida barglarninig shitirlashiga quloq soling. Oyoqlaringiz ostida yumshoq maysalarni his eting. Yalanglik o`rtasida maktab qurilgan. Bu maktab “hayvonlar maktabi” Uni ko`ryapsizmi? Bu maktabda qanday hayvonlar o`qishadi? Qaysi hayvon o`qituvchi? O`quvchilar nima bilan shug`ullanyaptilar? O`zingizni qaysi hayvon deb tasavvur qilyapsiz va*

nimalarni his qilyapsiz? Men 10 gacha sanagunimcha bu holatda qolishingiz mumkin va keyin esa ko`zingizni oching.

Ko`rsatma:

Boshlovchi: *Sizlar hayvonlar maktabida bo`ldinglar, endi esa qo`llaringizga qalam olib qog`ozga ko`rganlaringizni chizinglar. Chizgan rasmingiz ichidan o`zingiz tasavvur qilgan hayvonning oldiga “M” harfini qo`ying*

Interpretatsiya

1.Rasmning varaqda joylashishi. Rasm varaqning tepa qismida joylashtirilgan bo`lsa, bu o`zini boshqalardan ustun qo`yishi, o`zining jamoadagi o`rnidan qoniqmaslik, atrofdagilar tomonidan etarli darajada qabul qilinmaganligi. Rasm varaqning pastki qismida joylashishi o`ziga ishonmaslik, o`z-o`zini past baholash. Agar rasm varaqning o`rtasida joylashgan bo`lsa, barchasi me`yorida.

2.Figuralarning konturlari.Figuralarning konturlari quyidagicha talqin qilinadi: atrofdagilardan himoya- agar ustunlar chizilgan va ular ustidan bir-necha marotaba bo`yalgan; tajovuzkorlik – agar rasmda to`siqlar o`tkir burchaklar tarzida chizilgan bo`lsa; qo`rquv va xavotir – qalam bosib chizilgan; shubhalanish, xavfsirash- agar to`siqlar chizilgan bo`lsa.

3. Ko`z, quloq, og`iz – organlarning chizilganligi.

Ko`zlarning chizilmaganligi ma`lumotlarni qabul qilmaslik, quloqlar (katta-katta qilib chizilgan) o`ta qiziquvchanlik, ayniqsa o`zi haqidagi boshqalarning fikri haqida. Ochiq va shtrixlar yordamida chizilgan og`iz – qo`rquv holatlarining tez-tez paydo bo`lishi, tishlar – verbal agressiya

4.Rasmda personajlarning bir-birlari bilan munosabatlari kommunikativ sohadagi xususiyatlarini anglatadi. Rasmda bir-birlari bilan turli munosabatlarda , ya`ni birgalikda o`ynash, o`quv faoliyatida tasvirlanganligi va ularning o`rtasida chiziqlar tortilmaganligi sinfdoshlari bilan yaxshi munosabatda ekanligidan darak beradi. Aksincha chizilgan bo`lsa, boshqa o`quvchilar bilan muloqotga kirishishida qiyinchiliklar mavjud.

**5.Rasmda tasvirlangan o`qituvchi va o`quvchi timsolidagi hayvonlar o`rtasidagi munosabatlar.** Ular o`rtasida qarama-qarshiliklar bor-yo`qligini

kuzatish. O`qituvchi va o`quvchining figuralari bir-birlariga nisbatan qanday joylashgan?

**6.O`quv faoliyatining tasvirlanganligi.** Rasmda o`quv faoliyatining tasvirlanmaganligi bolani maktab o`qishdan tashqari tomonlari bilan jalb qilishi haqida xulosa qilish mumkin. Agar o`quvchilar, o`qituvchi chizilmagan bo`lsa, rasmda maktab tasvirlanmagan bo`lsa, bolada hali o`quvchi pozitsiyasi shakllanmaganligini taxmin qilish mumkin, u o`quvchining vazifasi nimadan iborat ekanligini anglamaydi.

7.Ranglarning tanlanishi. Yorqin ranglardan foydalanib chizsa, bolaning maktabda yaxshi emotsional holatda ekanligidan, xira ranglardan foydalansa bolaning muvaffaqiyatsizligidan va tushkun holatda ekanligidan darak beradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak boshlang'ich sinfda psixologik xizmatning o'rni juda beqiyos. Chunki bu davrda bola hayotida kata o'zgarishlar ro'y beradi, avvalo ularning maktab hayotiga moslashishi muhim o'rin tutadi. Bolaning maktabga yaxshi moslashib ketishida o'qituvchilarning va maktab psixologining xizmati katta.

Biz bola rivojlanishidagi negativ omillar, ya'ni «rivojlanmaganlik», «etishmovchilik» va boshqalarni tadqiq etish doirasida hal qilishga intildik.

Tizimda loyihalashning mantiqiy rivojlanishidagi ancha murakkab qarama-qarshi jarayonlarda mutaxassislar bolalarda ko'p uchraydigan muammolarning samarali echimi dasturini ishlab chiqishadi va shu asosda pedagoglar rivojlanish yo'lini belgilaydilar.

Kuzatish natijalarini baholash uchun esa tashxis modelini tuzish masalasi yuzaga keladi. Shuning uchun bolaga nisbatan tizimli yondoshuv va sub'ekt shaxsi kichik dunyosining tashqi muhit bilan o'zaro munosabatlari tavsifnomasi tahlilini tashxis tadqiqotlariga yo'naltirish zarur.

Demakki, mazkur sohada yangi yo'llarni izlashga yanada ko'proq ehtiyoj tug'ilmokda va bola muammolarini o'rganishning psixologik va pedagogik malakalari, tashxis ishlari darajasi asosiy ko'rsatkichi doimo diqqat markazida bo'lishi joiz.

Xullas, bola holatini o'rganishda bunday ko'p bosqichli psixologik tashxis tizimi nihoyatda qo'l keladi. U faqatgina bola holatining eng dolzarb fenomenlarini ko'rsatibgina qolmay, balki ishonchli istiqbol tashxisini ham ta'minlaydi, bolaning keyingi rivoji va o'qishi, korreksion (tuzatish) ishlarining yanada samarali dasturlarini ishlab chiqish imkoniyatini beradi. Bolalar bilan ishlashning zamonaviy tajribalari shuni ko'rsatadiki, ayrim hollarda bola holati faqatgina yaxshi tomonga emas, balki u yoki bu sabablari, o'qitish va sharoit rivojiga bog'liq tarzda yomon tomonga o'zgarishi mumkin.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: Sharq, 1997.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. T.: Sharq, 1999.
3. Nishanova Z.T. Psixologik xizmat-T.: 2005.
4. Nishanova Z.T. Psixologik maslahat – T.: 2001
5. Nishanova Z.T., Xalilova N.I. Psixokorreksiya –T.: 2006
6. Nishanova Z., Qurbonova Z., Abdiev S., To'laganova Sh. Psixodiagnostika. – T.: 2008. – 314 b.
7. Anastazi A. Psixologicheskoe testirovanie: V 2 KN. Per, s.ang: Pod. red. K.M.Gurevicha, V.I.Lubovskogo. - M.: Pedagogika. 1992.
8. Abramova G.S. Prakticheskaya psixologiya M.: 2001
9. Burlachuk L.F., Psixologiya lichnosti. – K.: Zdorov'ya, 1989. – 168 b.
10. Dubrovina I.V. Shkol'naya psixologicheskaya slujba M.: 1991
11. Detskaya prakticheskaya psixologiya: Uchebnik /Pod red.T.D.Martsinkovskoy. M., 2001
12. Gamezo M.V., Domashenko I.A. Atlas po psixologii: 3-e izdanie. - M.: 1999.
13. Godfrua J. Chto takoe psixologiya. T.1. - M.: mir, 1992.
14. Nemov R.S. Psixologiya. Uchebnik. – M.: Prosvetshenie: VLADOS, 2002
15. Psixokorreksionnaya i razvivayushchaya rabota s det'mi / Pod red. I.V. Dubrovinoy. – M., 2002.